

**Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak**

Oriental Universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-kurs talabasi Boboyeva Maqsuda

Ilmiy tahbar: Muhiddin Toshov**Annotatsiya**

Ushbu maqolada pedagoglik kasbi, unga qo'yiladigan talablar, uning burch va mas'uliyatlari hamda bugungi kun zamonaviy o'qituvchisining qanday xislatlarga ega bo'lishi borasida muhim tavsiyalar bayon etilgan

Kalit so'zlar

Pedagog, o'qituvchi, axborot texnologiyalari, zamonaviy o'qituvchi, pedagogik mahorat

Kirish. Bilamizki, hamma kasbni, shu kasb borasidagi bilimlarning barchasini ustoz o'rgatadi. Ustoz- ilm-ma'rifat yo'lini yorituvchi nur, shaxsni kamolotga yetaklovchi yo'lchiroq, ta'lim –tarbiya beruvchi murabbiydir. Shu bois, o'qituvchilik kasbi o'ta zahmatli va sharaflil kasb hisoblanadi. Prezidentimizning “ O'zbekistonda bugundan boshlab eng hurmatli, eng e'zozli inson- bu muallim!” degan gaplari yuqoridagi so'zimizning isbotidir. Bu esa, o'qituvchidan katta mas'uliyat va kasbga bo'lgan sadoqatlilikni talab etadi. Aslida o'qituvchida qanday xususiyatlar mujassam bo'lishi bo'lishi kerak. Quyida shu haqida bayon etamiz.

- **Bolalarga hurmat.** Odatda o'qituvchi bolalarni yaxshi ko'rishi kerak deyishadi. Biroq bu fikrlar juda mavhum va turli talqinlarga sabab bo'lishi mumkin. O'qituvchini hurmat qilish shaxsni ko'rish demakdir.
- **Tolerantlik.** Insonlarning barchasi turlicha. Fikrlar ham xuddi shunday. Bolalar kattalar kabi qolipga tushib qolgan fikrlar bilan o'ylashmaydi, shuning uchun erkin fikrlashadi. O'qituvchi dars jarayonida buni ham alohida e'tiborga olishi lozim.

- **Chegarani his qilish.** Bu keng qamrovli bo'lib, ruhiy chegaralarga ham, shaxsiy bilimlarga ham tegishli. Chegara sinfda ham sinfdan tashqarida ham bir maromda ushlab turilishi lozim.
- **O'z-o'zini tanqid qilish .** Agar o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilib, uni qanday rivojlantirish haqida o'ylasa u ko'p narsaga erishadi. O'zini –o'zi tanqid qilish har tomonlama olinadigan tushuncha. Bunga bilim jihatida ham , ichki va tashqi olami ham inobatga olinadi.

Asosiy qism. Mustaqillikning ilk davrlaridanoq o'qituvchilarning kasbiy mahoratini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida shakllantirish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Hozirgi jadallashgan davrda o'qituvchining vazifasi yanada murakkablashib bormoqda. Endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, teran fikrlashni, chuqur bilim va mulohazani talab etadi. bundan tashqari, bugungi kun o'qituvchisi o'z faniga oid bilimlardan tashqari, pedagogik, psixologik, kasbiy mahorat va tayyorgarlik , siyosiy, axborot texnologiyalari kabi yo'nalishlardagi bilimlarga ega bo'lmog'i talab etilmoqda. Bu borada rus pedagogi A.S.Makarenko shunday deya fikr yuritadi: “Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish –turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin”. Ushbu ta'rifdan xulosa chiqarish mumkinki, o'qituvchi har tomonlama mukammal va ideal shaxs bo'lishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarining mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, vatanga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbati;
- kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga turli bilimlardan boxabar bo'lishi;



- ta'lim –tarbiya metodikasidan ko'nikma va malakalarini oshirib borishi;
- o'z kasbiga ijodiy yondashishi;
- o'z bilim va mahoratini doimiy oshirib borishi;
- o'z kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan yutuqlar , tarbiya texnologiyasi, komputer va axborot texnologiyalaridan doimiy xabardor bo'lishi.

Jadal su'atlarda rivojlanib borayotgan zamonamizning zamonaviy pedagoglari muvaffaqiyatli ishlashi pedagogic mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat qilib , ulkan natijaga erishishdir. Ijodkorlik uning hamisha hamroxi bo'lgan . chunki, ushbu faoliyat ijodiy xarakterga ega. O'qituvchi o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning barchasi ijodkorlikning tub mohiyati, ishning maqsadi bilan bog'liq.

Xulosa: Xulosa qilish mumkinki, zamonaviy o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, pedagogic mahoratga ega bo'lish bilan birga, chet tillarini ham bilishi lozim. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari, smart doskalar bilan ishlashni ham bilishi lozim. Kasbiy bilimlari bilan birga o'qituvchi mana shularni ham mukammal o'rgansa dars samarali kechadi va zamon talabi darajasidagi pedagog maqomiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogik mahorat. Darslik. A.Xoliqov. Toshkent 2011
2. Umumiy pedagogika . B.X.Xodjayev. Toshkent 2017
3. Pedagogic atamalar lug'ati . Toshkent 2008
4. Zamonaviy o'qituvchi va obrazi. N.Ashurov.